

Shahrisabzdagi Amir Temur nomidagi moddiy madaniyat tarixi muzeyining tashkil etilishi

**QarMII “O‘zbekiston tarixi”
kafedrasi o‘qituvchisi
Xosiyatov X**

Shahrisabz shahar Amir Temur nomli moddiy madaniyat tarixi muzeyi Shahrisabz shahar hokimining 1996 yil 8 maydagi № X– 136/5 –sonli qarori asosida tashkil etilgan hamda Qashqadaryo viloyat Madaniyat ishlari boshqarmasining 1996 yil 14 noyabrdagi 67–sonli buyrug‘i asosida o‘z faoliyatini boshlagan. Muzey ma‘muriyati, fond xonalari hamda ekspozitsiyasi YuNESKO ning “Jahon merosi” ro‘yxatiga kiritilgan XVI asrda qurilgan Chubin madrasasi majmuida ishlab kelmoqda.

Muzey O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan e‘lon qilingan 2011 yil “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturida belgilangan chora tadbirlarni amalga oshirish uchun ilmiy-ma‘rifiy yunalishda targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib bordi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mustaqillik bayramini 24 yilligini ko‘tarinki ruhda kutib olish haqida” gi farmoni shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov tomonidan mustaqilligimizning 24 yilligi bayramiga bag‘ishlab e‘lon qilgan “Buyuk va muqaddassan mustaqil Vatan” shiori ostida muzeyimiz ilmiy jamoasi yangi ko‘rgazmalar tashkil etishdi. Ekskursiyalar jarayonida belgilangan chora tadbirlar rejasiga muvofiq muzeyning ilmiy xodimlari qadimiy Kesh-Shahrisabz vohasining o‘ziga xos moddiy va ma‘naviy madaniyati tarixini, mustaqillikdan keyingi 24 yil mobaynidagi ulkan bunyodkorlik ishlarini targ‘ib etish orqali mahalliy aholini ayniqsa yoshlarni Prezidentga sadoqat hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ishiga munosib xissa qo‘shdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2008 yil 12 sentyabrda tasdiqlangan “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 31 oktyabrdagi “Muzeylar faoliyatiga taaluqli me‘yoriy hujjatlar to‘g‘risida”gi 237-sonli qarorining ijrosi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 12 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonunni ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi 68-sonli qarori ijrosi yuzasidan muzey fondi va ilmiy tadqiqot bo‘limlarida eksponatlarni ro‘yxatga olish, saqlash va namoyish etishga oid hujjatlashtirish ishlarini tartibga solish hamda muzey zahirasida saqlanayotgan eksponatlarning elektron va bosma katalogini yaratish ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunlarda muzeyning davlat katalogiga kiritish uchun zaruriy malumotlarni taxminan 45 foizi amalga oshirilgan.¹

O‘zbekiston Respublikasining «Muzeylar to‘g‘risida Qonuniga» va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 12 apreldagi 68-sonli qaroriga asosan muzey uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlari

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2008 йил 12 сентябрда тасдиқланган “Музейлар тўғрисида”ги қонуни

amaliyotga joriy qilingan. Davlat muzeylarining toifalari to'g'risidagi Nizomga asosan Respublika komissiyasiga toifa olishi uchun zaruriy xujjatlar to'planmoqda.²

Milliy muzey fondining Davlat katalogi to'g'risidagi Nizom bo'yicha muzeydagi eksponatlarning elektron malumotlar bazasi to'planmoqda

Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini Milliy muzey fondi tarkibiga kiritish hamda uning tarkibidan chiqarish tartibi to'g'risidagi Nizomga asosan viloyat miqyosida Madaniyat va sport ishlari boshqarmasi qoshida komissiya tuzilgan.

Milliy muzey fondining davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini boshqarish tartibi to'g'risidagi Nizom bilan muzey xodimlari yozma ravishda tanishtirilib, ishga joriy etildi.

Milliy muzey fondi holati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizomga asosan aloqador tashkilotlarga muzey fondi haqida malumotlar berildi va fond xolati masalasida to'liq nazorat amalga oshirildi.

Muzey mutaxassislarini tayyorlash, muzey xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi to'g'risidagi Nizomga asosan muzey xodimlaridan 1 kishi "O'zbekmuzey" jamg'armasi tomonidan tashkil etilgan malaka oshirish kursiga malakasini oshirib keldi.

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kirib ko'rish tartibi va shartlari to'g'risidagi Nizomga asosan muzey xududlari zonalarga ajratilib, ichki tartibotlar ishlab chiqildi.

Viloyatdagi tashkilotlar va nodavlat muzeylari (Xalq talimi boshqarmasi tarkibidagi muzey ko'rgazmalar va xususiy muzeylar)ning normativ-huquqiy hujjatlarini «Muzeylar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan muzey mamuriyati tomonidan ko'rib chiqilib muvofiqlashtirildi.

2011 yil davomida 31504 nafar 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchi va talabalarga muzeyda hamda Shahrisabz tarixiy yodgorliklari bo'ylab ekskursiya xizmatlari tashkil etildi.

2011 yilda muzey hovlisida arxeologik o'quv amaliyot maydonchasi tashkil etildi. Unda maktab o'quvchilari hamda turizmga ixtisoslashgan kollej talabalari uchun muzey mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan o'quv amaliyot davomida O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi, "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi, "Madaniy boyliklarni olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"gi, "Muzeylar to'g'risida"gi Qonunlari hamda qonunosti hujjatlari haqida batafsil tushunchalar berilib yoshlarni kelajakda kasb yo'nalishlarini tanlashga ko'mak berilmoqda (N.Xushvaqovning Arxeologik maydoncha to'g'risida "Shahrisabz tarixi muzeyining ko'rgazma uslublari(xalqaro tajribalar va an'analar)" mavzusidagi ilmiy maqolasi ilova qilinadi).

² Ўзбекистон Республикасининг «Музейлар тўғрисида Қонунига» ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 12 апрелдаги 68-сонли қарори

Mazkur yilda 3 ta arxeologik hamda 1 ta madaniy meros obyektlarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan ekspeditsiyalarda muzey xodimlari faol ishtirok etishdi.

Ekspeditsiya "Paleolit davridagi mehnat qurollarining texnika va texnologik tahlili" mavzusi bo'yicha Qizilqumda va Toshkent viloyatidagi arxeologik obyektlarni o'rganish maqsadida ilmiy tadqiqot olib bordi (tadqiqotchi N.Xushvaqov).

Ekspeditsiya "Sangirtepa ibodatxonasi" mavzusi bo'yicha Kitob tumani Ko'mirtepa qishlog'ida joylashgan Sangirtepa yodgorligida olib borilgan arxeologik ilmiy tadqiqotlar (muzey ilmiy xodimi A.Toshev).

Ekspeditsiya "O'rta asr yodgorliklari" mavzusi bo'yicha G'uzor tumani Yalpoqtepa yodgorligida olib borilgan O'zbekiston-Turkiya hamkorligidagi xalqaro ilmiy tadqiqotlar (O'zFA Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi A.Rayimqulov hamda muzey xodimlari).

Ekspeditsiya "Oqsaroy favvoralarini ta'mirlash" mavzusi bo'yicha Fransiyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda olib borilgan xalqaro ilmiy tadqiqotlar (N.Xushvaqov rahbarligida muzey ilmiy xodimlari).

2011 yilda ilmiy tadqiqotlar olub boruvchi bo'limlarga tegishli ilmiy xodimlar tasdiqlangan ilmiy reja asosida ilmiy ishlarni davom ettirdilar. Jumladan tarix fanlari nomzodligi uchun ilmiy izlanishlar olib borayotgan muzey rahbari N.Xushvaqovning "Toshkent vohasining so'nggi paleoliti (Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari (1-Sh) materiallarining texnik-tipologik tadqiqoti)" mavzusidagi tarix fanlari nomzodligi uchun yozgan dissertatsiyasi muhokamalardan o'tib, 2011 yil 9 sentyabrda rasmiy ochiq himoyaga qo'yildi. Dissertatsiya himoyasi muvaffaqiyatli o'tib N.Xushvaqovga OAK tomonidan tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi berildi. Dissertatsiya so'nggi paleolitning 28000-12000 yilliklarda Toshkent vohasida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tarixiga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqot davrida Ko'lbuloqdagi tosh buyumlarning texnik tipologik qiyofasi, mehnat qurollari, ularning tayyorlanish texnologiyasi, buyumlarni qiyosiy solishtirish orqali xronologiyasi va o'ziga xos madaniyatini aniqlashga qaratilgan.³

Ko'lbuloq makoni materiallarini o'rganishda quyidagilarga e'tibor berildi. Jumladan, ushbu makon yuqori qatlamlari industriyalaridagi toshga birlamchi ishlov berish texnikasi sinchiklab tadqiq qilindi. Ilk bor zarb maydonchalarining xarakteri, chaqmoqlash aksidentlari hamda shunga o'xshash muhim texnik ko'rsatkichlar ko'rib chiqildi. Dissertant boshchiligida ilk bor bifaslar, rabolar, qirg'ichlar, toshsimon va o'yib kertib ishlangan qurollarning bir qator yangi turlari, yupqalashtirilgan qurollarning o'ziga xos xususiyatlari hamda yangi tosh qurollarning turlari aniqlandi. Ko'lbuloq 3 – madaniy gorizonti qatlamlaridan 82 dona plastina olingan bo'lib, ular 3 – qatlam umumiy artifaktlari sonining 7 % ga yaqinini tashkil qiladi. Ular orasida eng ko'pi butun plastinalar (46.3 %), ikkinchi o'rinda – proksimal plastinalar (18.3 %), keyingi pog'onalarni medial hamda distal

³ Хушвақовнинг Н. "Тошкент воҳасининг сўнги палеолити (Кўлбулоқнинг юқори қатламлари (1-Ш) материалларининг техник-типологик тадқиқоти)" мавзусидаги тарих фанлари номзодлиги учун ёзган диссертацияси

fragmentlar egallaydi (11 %). Plastinalarning 13.4 % ni mikroplastinkalar tashkil qiladi. Plastinalar chaqmoqtosh jinslaridan ishlangan. Ular orasida kulrang chaqmoqtosh ko'pchilikni tashkil qiladi (41.4 %), ikkinchi pog'onani jigarrang chaqmoqtosh (35.4 %), keyigi o'rinlarni yashma (11 %), kremniylashgan ohaktosh (8.5 %) va kremniylashgan slanes (3.7 %) egallaydi. Ushbu plastinalarning 64.6 % zarb maydonchalarini saqlab qolgan. Ushbu yodgorlikning qatlamlari materiallarini yangi uslublar asosida tadqiq qilishdan olingan natijalar nafaqat Vatanimiz, balki butun O'rta Osiyo paleolitshunosligining manbaviy bazasini boyitadi.

Ushbu yodgorlikdan topilgan arxeologik materiallar O'zbekiston muzeylari, Toshkent viloyatidagi Axangaron, Angren, Chirchiq muzeylari xamda Shaxrisabz tarixi muzeyi ko'rgazmasida namoyish etilmoqda.

Dissertasiya O'zbekistonning ibtidoiy davriga tegishli tarixini kam o'rganilgan tomonlarini ochib berishga va yangi ma'lumotlar bilan to'ldirishga hamda vohaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek muzey ilmiy xodimlari 2011 yilning iyun oyida Shahrissabz shaharsozlik madaniyatining qadimiy o'choqlaridan biri-Sangirtepa hamda Podayotoqtepa arxeologik yodgorliklarida O'zFA Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi tarix fanlari nomzodi M.Xasanov rahbarligidagi O'zbek-Fransuz xalqaro ilmiy ekspeditsiyasida ishtirok etishdi. Arxeologik ilmiy tadqiqotlar natijasida Sangirtepa ibodatxonasining 70 % xududi ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Xalqaro arxeologik ekspeditsiyalar olib borilayotgan mazkur yodgorlik shaharsozlik madaniyatining shakllanishini ochib berishda kashfiyot bo'lishi shubhasizdir. Ahamoniylar davriga xos bo'lgan Sangirtepa arxeologik obyektidan eramizdan avvalgi VIII – VII asrlarga oid xom g'ishtdan tiklangan devor qoldiqlari hamda ibodatxona idishlari, shuningdek ostadonlar bo'laklari va ma'budlarning haykalchalari topilmoqda. Sangirtepadagi arxeologik –stratigrafik tadqiqotlar natijasida manzilgohning shakllanish tarixi va uning o'zlashtirilishi bosqichlari aniqlandi.

2011- yilda olib borilgan Sangirtepadagi ilmiy arxeologik tadqiqotlar mazkur yodgorlikning janubiy sharqiy qismlarida va qisman shimoliy tarafida olib borildi. Janubiy qismidan eramizdan avvalgi IV–III asrlarga oid sopol idishlar bo'laklari hamda plastinadan ishlangan munchoqlar bo'laklari, tosh yo'lakchalar shuningdek pastki qatlamlardan Ahamoniylar davriga oid xom g'ishtdan qurilgan devor qoldiqlari ochib borilmoqda. Ushbu obyektidan topilayotgan oshxona buyumlari tandir va o'choqlar qoldiqlari hamda ornamentli ostadon bo'laklari qadimda bu yerda o'tkazilgan hukmdorlarning qurbonlik va dafn etish marosimlaridan dalolat beradi. Podayotoqtepa yodgorligi ham 2011 yilda qisman tekshirilib, arxeologik qazilmalarni yana qaytadan yo'lga qo'yish uchun ilmiy loyihalar ishlab chiqildi.

“O'rta asr yodgorliklari” mavzusi bo'yicha G'uzor tumani Yalpoqtepa yodgorligida olib borilgan O'zbekiston-Turkiya hamkorligidagi xalqaro ilmiy tadqiqotlar (O'zFA Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi A.Rayimqulov hamda muzey xodimlari) tariximizni yoritishda katta axamiyatga ega bo'ldi. Ma'lumki ushbu ekspeditsiya 2002 yildan boshlab yo'lga qo'yilib vohamizda mavjud o'rta asr

yodgorliklarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ekspeditsiyada Turkiya davlatidan arxeolog olim professor Ibrohim Chekmeli ishtirok etmoqda. 2011 yilda mazkur yodgorlikda eski shahar qoldig'i, xokim saroyi, aholi turar joylari hamda shahar mudofaa devori qoldiqlari ochib o'rganildi. Shuningdek V-VII asrlarga oid ro'zg'or idishlari jumladan sopol xumchalar, ko'zalar, piyolalar, haykalchalar, urchuqlar, qayroq toshlar, tegirmon toshlari, tangalar, temir o'roqlar, hayvon shaklidagi shamdonlar topilib muzeyimiz fondiga topshirildi.⁴

⁴ Хушвақовнинг Н. “Тошкент воҳасининг сўнги палеолити (Кўлбулоқнинг юқори катламлари (1-Ш) материалларининг техник-типологик тадқиқоти)” мавзусидаги тарих фанлари номзодлиги учун ёзган диссертацияси

**Қарши муҳандислик – иқтисодиёт институти “Ўзбекистон тарихи”
кафедраси ўқитувчиси Хосиятов Хуршид
томонидан “ZiyoNet” сайтга жойлаштирилган “Шахрисабздаги Амир
Темур номидаги моддий маданият тарихи музейининг ташкил
этилиши” мавзусидаги илмий мақоласига
ТАҚРИЗ**

Мустақиллик шароитида жамиятдаги янги ўзгаришларни амалга ошириш жараёнида жамият аъзоларини эркин, демократик тафаккур ва миллий руҳда тарбиялаш вазифаларини бажаришда тарих фанини аҳамияти тобора ошиб бормоқда. Мустақилликнинг дастлабки даврларидан бошлаб халқнинг тарихий хотирасини тиклаш, тарих фанига доир тадқиқотларни ҳар томонлама такомиллаштириш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

Миллий музей фондининг Давлат каталоги тўғрисидаги Низом бўйича музейдаги экспонатларнинг электрон маълумотлар базаси тўпланмоқда

Музей ашёлари ва музей коллекцияларини Миллий музей фонди таркибига киритиш ҳамда унинг таркибидан чиқариш тартиби тўғрисидаги Низомга асосан вилоят миқёсида Маданият ва спорт ишлари бошқармаси қошида комиссия тузилганлиги ёритилган.

Миллий музей фондининг давлатга тегишли қисми таркибига киритилган музей ашёлари ва музей коллекцияларини бошқариш тартиби тўғрисидаги Низом билан музей ходимлари ёзма равишда таништирилиб, ишга жорий этилди.

Мазкур илмий мақола, энг аввало халқимиз тарихининг кўзгуси ҳисобланган музейлар хусусида, жумладан Қашқадарё воҳасидаги музейлар ва уларда сақланаётган ноёб экспонатларга оид маълумотлар беради.

Ушбу илмий мақоладан ватанимиз тарихига қизиқувчилар, музейлар фаолияти билан боғлиқ бўлган илмий тадқиқот олиб боровчилар фойдаланишлари мумкин

Умуман олганда ушбу мавзу бўйича етарлича маълумотлар берилган муаллиф томонидан илгари сурилган фикр-мулоҳазалар етарли даражада. Ушбу мулоҳазавий фикрни “ZiyoNet” тармоғига жойлаштириш учун таклиф этиш мумкин деб ҳисоблайман.

**“Ўзбекистон тарихи”
кафедраси доценти**

Д. Васиева

**Қарши муҳандислик – иқтисодиёт институти “Ўзбекистон тарихи”
кафедраси ўқитувчиси Хосиятов Хуршид
томонидан “ZiyoNet” сайтига жойлаштирилган “Шахрисабздаги Амир
Темур номидаги моддий маданият тарихи музейининг ташкил
этилиши” мавзусидаги илмий мақоласига
ТАҚРИЗ**

Мустақиллик шароитида жамиятдаги янги ўзгаришларни амалга ошириш жараёнида жамият аъзоларини эркин, демократик тафаккур ва миллий руҳда тарбиялаш вазифаларини бажаришда тарих фанини аҳамияти тобора ошиб бормоқда. Мустақилликнинг дастлабки даврларидан бошлаб халқнинг тарихий хотирасини тиклаш, тарих фанига доир тадқиқотларни ҳар томонлама такомиллаштириш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

Миллий музей фондининг Давлат каталоги тўғрисидаги Низом бўйича музейдаги экспонатларнинг электрон маълумотлар базаси тўпланмоқда

Музей ашёлари ва музей коллекцияларини Миллий музей фонди таркибига киритиш ҳамда унинг таркибидан чиқариш тартиби тўғрисидаги Низомга асосан вилоят миқёсида Маданият ва спорт ишлари бошқармаси қошида комиссия тузилганлиги ёритилган.

Миллий музей фондининг давлатга тегишли қисми таркибига киритилган музей ашёлари ва музей коллекцияларини бошқариш тартиби тўғрисидаги Низом билан музей ходимлари ёзма равишда таништирилиб, ишга жорий этилди.

Мазкур илмий мақола, энг аввало халқимиз тарихининг кўзгуси ҳисобланган музейлар хусусида, жумладан Қашқадарё воҳасидаги музейлар ва уларда сақланаётган ноёб экспонатларга оид маълумотлар беради.

Ушбу илмий мақоладан ватанимиз тарихига қизиқувчилар, музейлар фаолияти билан боғлиқ бўлган илмий тадқиқот олиб боровчилар фойдаланишлари мумкин

Умуман олганда ушбу мавзу бўйича етарлича маълумотлар берилган муаллиф томонидан илгари сурилган фикр-мулоҳазалар етарли даражада. Ушбу мулоҳазавий фикрни “ZiyoNet” тармоғига жойлаштириш учун таклиф этиш мумкин деб ҳисоблайман.

**“Ижтимоий фанлар”
кафедраси мудири ф.ф.н**

Ж.Ш. Шоназаров